

Hasamuddin HAMDARD,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
 va adabiyoti universitetida tayanch doktoranti.*
 E-mail: hasamuddin.hamdard@yahoo.com

PhD N.Jo'raqo'ziyev taqrizi asosida

THE BEGINNING OF MASS MEDIA IN UZBEK LANGUAGE IN AFGHANISTAN

Annotation

After 1978, the language and literature of the Uzbek people, as well as some cultural achievements in the field of Uzbek language and literature, were officially recognized in the regular of Afghanistan.

In July of this year, Yoldoz newspaper was published in Uzbek language, and Uzbek language bulletins were dedicated for half an hour through Afghanistan Radio. And then, with the opening of Uzbek language and literature departments in the Academy of Sciences, universities and the Ministry of Education, some action were taken to prepare textbooks for this language. At that time, Afghanistan and the Soviet Union, which had the same political and governmental systems, as well as the Central Asian countries belonging to the former Soviet Union, which had established cultural relations with Uzbekistan and Turkmenistan, and experts in the field of this language were sent to these countries.

During this period, in addition to the Uzbek-language newspaper "Yoldoz", other newspapers and weeklies were published in the northern provinces, including Faryab and Jozjan. Broadcasts in Uzbek language were also assigned to radio and television stations.

Key words: Gazeta, Uzbek Press of Afghanistan, Uzbek literature.

НАЧАЛО СМИА НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ В АФГАНИСТАНЕ

Annotatsiya

После 1978 года язык и литература узбекского народа, а также некоторые культурные достижения в области узбекского языка и литературы были официально признаны в регулярном Афганистане.

В июле этого года на узбекском языке вышла газета «Йолдоз», а по Радио Афганистана в течение получаса были посвящены бюллетени на узбекском языке. А затем, с открытием кафедр узбекского языка и литературы в Академии наук, вузах и Министерстве образования, были предприняты некоторые действия по подготовке учебников по этому языку. В то время Афганистан и Советский Союз, имевшие одинаковые политические и государственные системы, а также страны Центральной Азии, входившие в бывший Советский Союз, которые установили культурные связи с Узбекистаном и Туркменистаном, и эксперты в области этого языка были отправлены в эти страны.

В этот период, помимо узбекоязычной газеты «Ёлдоз», в северных провинциях, в том числе в Фарьябе и Джозджане, издавались и другие газеты и еженедельники. Передачи на узбекском языке также были закреплены за радио- и телестанциями.

Ключевые слова: Газета, Узбекская пресса Афганистана, узбекская литература.

AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING BOSHLANISHI

Annotation

1978- yildan so'ng, rasmiy shaklda Afg'oniston konstitutsiyasida, o'zbek xalqining tili va adabiyoti hamda ushbu til rivoji va ravnaqi uchun rasmiyot bo'yicha ba'zi bir madaniy yutuqlar qo'lga kela boshladi.

Ushbu yilning iyul oyidan boshlab o'zbek tilida "Yulduz" gazetasi, chopdan chiqq boshlab, Afg'oniston radiosi orqali o'zbek tilida yarim soatlik vaqt ajratildi, keyin Afg'oniston Fanlar akademiyasi hamda o'zbek tili bo'yicha universitetlarda kafedralar ochilishi bilan ta'lim vazirligi bolalar uchun maktablarda ham o'zbek tilida darsliklar tayyorlash uchun ba'zi bir harakatlar yo'lga qo'ydi. Shu vaqtlarda, siyosiy-davlat sistemalari mushtarak bo'lgan Afg'oniston va Sovet Ittifoqi hamda unga qarashli O'rta Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston va Turkmaniston bilan madaniy aloqalar qurilib, o'zbek ziyolilari, oliy ta'lim olish uchun ushbu o'lkalarga jo'natildi.

Shu davrlarda o'zbek tilidagi "Yulduz" gazetasidan ortiq, shimoliy viloyatlarda bosimdan chiqadigan boshqa gazeta va haftaliklar, jumladan "Foryob" va "Javzijon" gazetalari orqali ham, o'zbek tili nashriyoti uchun vaqt ajratilar edi.

Kalit So'zlar: Gazeta, Afg'oniston o'zbek matbuoti, o'zbek adabiyoti.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'sbu maqolanin mavzuiga tegishli adabiyotlar qidirildi. Natijada bu mavzuda o'zbek tiliga yozilgan ilmiy maqola yozilmaganligi

Tadqiqot metodologiyasi. Gazetanin nashr etilgan eski nusxalaridan birtasi erishildi va mustaqil o'rganilib chiqildi. Hamda aniqroq ma'lumotlar uchun "Yulduz" gazetasinin ayrim xodimlari bilan yuzma-yuz so'zlash o'tkazildi.

Uzoq muddatlardan keyin, 1978-yil kutilmagan bir holatda, Afg'oniston o'zbeklari osmonida "Yulduz" gazetasi nur sochdi. "Yulduz" 1965- yildan boshlab yo'lga qo'yilgan kurash va mulohazalar natijasi edi. O'sha yili o'zbek farzandlari Muhammad Tohir Badaxshiy va Shahrullah Shahpar bilan Shar'iy Javzijoniy tashabbusi orqali Afg'oniston xalq demokratik jamiyati missiya bayonotida quyidagi matn kiritilgan edi:

"تعميم و اجراء تعليمات اجباري همگانی و مجانی ابتدایی به زبان مادری فرزندان کشور در سرتاسر مملکت بعد از سن هفت سالگی (پسر و دختر) بدون تبعيض..."

Tarjimasi: «Mamlakatning yetti yoshga to'lgan bolalarini (o'g'il bolalar va qizlarni) kamsitmasdan ona tilida umumiy va bepul boshlang'ich ta'limni umumlashtirish va amalga oshirish...»

1964-yil «Xalq» gazetasi 3- va 4-sonlarida, ularning jiddiy sa'y va harakatlari natijasida, missiya bayonotidagi mazkur paragrafnin amalga oshirish yo'lida birinchi qadam sifatida, Shar'iy Javzijoniyning ikki parcha

o'zbek she'ri «Yangi yil» va «Yangi zamon taronasi» nomlari ostida va Andxuylik Turkman shoir Uzroning bir parcha turkman she'ri nashr qilindi. Bu Afg'oniston matbuoti tarixida birinchi marta nashr yuzini ko'rgan turkiy she'rlar edi.

Ajablanish va ta'sir joyi shundaki, Kobul dorulfununida o'zbek va turkman bolalari ona tillaridagi ushbu she'rlarni o'qishda qiyinlangan va ayrimlari esa o'qiyolmaganlar. Albatta bu asarlar o'sha davom etib kelgan turkiy xalqlarga qarshi yuritilgan diskriminatsiya va milliy sitamga asoslangan siyosatning natijasi edi.

Undan keyin Shahid Shahpar va Shar'iy Javzjioniy tomonidan turkiy xalqlarning tili va milliy madaniyati masalasi siyosiy jihatdan himoya qilish zarurligi o'rtaga qo'yildi va ancha muddat kurash va mulohazalardan keyin, 1969-yil «Parcham» gazetasining 7, 8, va 9-sonlarida o'zbek hamda turkman tili va madaniy xalqlarini siyosiy jihatdan himoyasiga qaratilgan Shar'iy Javzjioniyning uchta maqolasi nashrdan chiqdi. Birinchisi «Farhang xalqhoie o'zbek va turkman, baxshi judoiy nopaziri farhang milliy Afg'oniston ast», ikkinchisi «Nigohiy ba zabon va adabiyoti xalqhoie o'zbek va turkman» nomlari ostida yozilgan va uchinchisi ularning fulkuluri va og'zaki adabiyoti haqida edi. Bu esa Afg'oniston tarixida turkiy xalqlarning madaniyat haqlarini himoya qilish bo'yicha rasmiy matbuotda nashr qilingan birinchi siyosiy e'tiroz maqolalari edi.

Birinchi maqolada jumladan quyidagilar deyilgan:

"چه وضعی اسفبارتر از این میتواند باشد که اکنون اکثریت روشنفکران اوزبیک و ترکمن نمیتوانند به زبان مادری خویش بخوانند و بنویسند و امکانات تحصیل به زبان مادری خویش را داشته باشند..."

Tarjimasi: O'zbek va turkman ziyolilarining ko'pchiligi o'z ona tilida o'qish va yozishni bilmasligidan yomonroq va o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyati bo'lmasligidan ayanchli nima bor..."

"در طی دهها سالی که از استقلال افغانستان میگذرد، نه تنها کوچکترین توجهی به احیای فرهنگ این خلقها صورت نگرفته است و با وجود آن اعتراف نشده، بلکه برعکس مرتجعینی هم وجود داشته اند که موجودیت فرهنگ آنانرا غیرقابل تحمل تلقی نموده اند؛ و حتی بی شرمانه به امحای مظاهر و بقایای آن اقدام کرده اند. تا اکنون هستند کوته نظران تنگ مایه‌ای که این دو خلق نجیب و وطن پرست را فاقد تاریخ و فرهنگ میدانند و در تحت تاثیر جهان بینی پوسیده و اندیشه های گمراه کننده خویش متقاعدند که باید بقایای اینگونه فرهنگها از بین برده شود."

Tarjimasi: Afg'oniston mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan yillar davomida bu xalqlarning milliy madaniyatini tiklashga zarracha e'tibor berilmay, uning mavjudligiga iqror etilmadi, aksincha ularning madaniyatini mavjudligi chidab bo'lmas deb hisobladi va ular hatto tarixiy asarlarini va uning qoldiqlarini yo'q qilishga harakat qilishdi. Hozir ham bu ikki aziz va vatanparvar xalqni tarix va madaniyatdan mahrum deb hisoblaydigan, ularning chirigan dunyoqarashi, noto'g'ri g'oyalari ta'sirida bunday madaniyatlar poydevori barbod bo'lishini istaydigan tor fikrli odamlar bor.

Maqolalar barcha ilm ahli va o'zbek ziyolilari tomonidan shavq va hayajon bilan kutib olinib, samimiyat harorat bilan qabul qilindi. Hatto qizil oyoq xalifasi va katta tojir «Katon garg nishon» fabrikasining egasi rahmatli Shahobiddin Yasaviy turli yo'llardan o'z mamuniyatlarini izhor etdilar. Undan keyin ba'zi siyosiy gazetalarda, goh o'zbek va turkman tillarida she'rlar chiqib turdi.

Shu kabi muntazam kurash natijasida 7-savr inqilobidan keyin, missiya bayonotidagi paragrafni amalga oshirish maqsadida o'sha zamon adliya vaziri bo'lgan ustoz Shar'iy Javzjioniy tashabbusi davom etdi va rahbariyat dasturi bilan u tasdiq qilgan to'rtinchi farmon, Afg'oniston Demokratik Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqdan o'tib, rasman ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi va unga binoan Afg'oniston turkiy xalqlar bilan birga baluch xalqi ham o'z milliy-madaniy haqlariga ega bo'lib, ona tillarida ta'lim olish va tarbiya ko'rish imkoniga ega bo'ldilar.

Farmonga muvofiq ustoz Javzjioniy tashabbusi bilan "Yulduz" gazetasi o'zbek va turkman tillarida, tashkil etildi. Gazeta asosan to'rt sahifada, kerak bo'lganda olti va sakkiz sahifada ham chiqarilardi va sahifalarida xilma-xil adabiy, ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy mazmunlar va she'rlarni o'qish mumkin edi. Biroz muddatdan keyin "Yulduz" gazetasi o'zbek tilida va "Kurash" turkman tilida ikki mustaqil gazeta bo'lib ikki yulduz kabi madaniyatimiz osmonida nur sochib turdi. "Yulduz" gazetasining birinchi mas'ul menejeri sifatida ko'p yillar matbuotda ishlab kelgan iste'dodli muxbir, yozuvchi va shoir marhum Muhammad Amin Uchqun belgilangan edi [Oltoy1994:5].

Hurmatli Muhammad Kozim Aminiy "Bulut veblogida" nashr bo'lgan "Afg'onistonda turkiy matbuotning qisqacha tarixi" sarlavhali maqolalarida 1977-yilda savr inqilobidan keyin, rasmiy shaklda Afg'onistonning konstitutsiyasida: "Mahkum millatlar qatorida, o'zbek tili va adabiyoti uchun ham ma'lum darajada, unumli odimlar ko'tarilib ba'zi bir madaniy yutuqlar qo'lga kela boshladi. Shu vaqtlarda o'zbek tilida "Yulduz" gazetasi matbuot dunyosi faoliyatiga boshlab, keyin turkman tilida "Kurash" nomli gazeta ham chop zaminasini topdi" deb yozganlar.

Lekin haqiqat shundan iboratki, o'sha davrdagi Dovudxon tomonidan qabul qilingan Afg'oniston konstitutsiyasida, mahkum millatlarga hech qanday madaniy haq berilmagan va boshqa mazlum millatlar qatorida o'zbek xalqining tili va adabiyoti uchun hatto bir ishora ham mavjud emas edi. Balki yozganimizdek "Yulduz" va "Kurash" gazetalari 1978-yil e'lon qilingan Vazirlar Mahkamasining to'rtinchi farmoni asosida tashkil etildi. Shuningdek, "Yulduz" gazetasi axborot va madaniyat vazirligida tashkil etilgan hamda ancha zamondan keyin, qabilalar vazirligiga oid bo'lgandir.

O'zbeklar va turkmanlar o'z gazetalari nihoyat qiziqish bilan kutib olib, ham moddiy ham ruhiy jihatdan himoya qildilar. Misol uchun "Katon garg nishon" zavod direktori rahmatli Shahobuddin Yasaviy bir fura vagon mashinasini "Yulduz" menejeri va idorasiga tuhfa qildi va ayrim vatandoshlar gazetani tarqatish hamda unga obunachilar topish ishlariga yordam bera boshladilar.

Yozuvchi, shoir va muxbir Muhammad Amin Uchqun, "Yulduz" gazeta-sining birinchi mas'ul menejeriga katta bo'lakda nashrdan chiqadigan gazetani to'ldirish va mazmunlarining sifatini oshirishi oson bo'lmadi. Chunki o'sha vaqtda o'zbek yozuvchilarning soni oz edi. Muhtaram Uchqun kecha-kunduz demay hamkor, shoir va yozuvchi qidirardi. Birinchi va ikkinchi betlarga tushadigan xabarlar, tafsirlar va rasmiy bayonotlarni tarjima qilib nashrga tayyorlash, kelib tushadigan she'r va maqolalarni tahrirdan o'tkazmasdan nashr qilish mumkin emas edi. Har holda "Yulduz" gazetasi uchun bir mezon yaratish kerak edi. Bu ishlarining hammasi Uchqunning zimmasiga yuklangan edi [Aybak ko'zgusi 2015:7].

Shuningdek ustoz Javzjioniy tashabbusi bilan Afg'oniston radio-televizioni qoshida «Zafar hunari guruhi» o'zbek milliy musiqasining bir ramzi sifatida tashkil etildi va sovet qo'shini bostirib kirib, davlatni almashtirgandan

keyin, ustozni hibsga olishiga qadar, uning mustaqil himoyasi ostida edi. Hurmatli ustoz Muhammad Kozim Aminiy «Zafar hunari guruhi» nomli maqolalarida yozganlaridek, «Shu kishining qamoqqa tashlanib vazirlik lavozimidan chetlantirilishi bilan «Zafar» ramzi haqiqatan ham katta himoyachisini qo‘ldan berib, ushbu guruh a‘zosi o‘zining buyuk homiysidan ayrildi».

Har holda Uchqun ikki yil hayotini «Yulduz»ga bag‘ishlab, uni davlat matbasi, «Linu tip» bo‘limida nashr qilishga kamyob bo‘ldi. U, sovet qo‘shini hujumidan keyin «Palanginaxuho» nomli qattiq bir e‘tirozli she‘rini nashr qilib, mudirlik vazifasidan bo‘shab, Turkiya tomon yo‘l oldi [Aminiy 2009:9].

Undan keyin «Yulduz» mas‘ul menejeri lavozimi, yosh muxbir Oyxon Bayoniga topshirildi. U og‘ir sharoitda bu vazifani zimmasiga oldi. Davlat organlarida hech bir yordam beradigan salohiyatli kishi yo‘q edi. Borlari ham millatchilik g‘oyalari berilib, salbiy kurash asosida ona tili va milliy madaniyatini juz‘iy masala hisoblab, ikkinchi o‘ringa qo‘yar edilar.

Bosmaxonada xudbinlik qiluvchilar ko‘p bo‘lgani sababli «Yulduz» va «Kurash» homiysiz qolib, har doim ham o‘z vaqtida nashrdan chiqq olmasdi. Mas‘ul menejer va yordamchilar kechalari navbatda nusxa ko‘chirish mashinasini olib, yarim kechgacha ishlar edilar va ba‘zan ikki sonni bir qilib bosimdan chiqarardilar. Albatta «Yulduz»ni yurgizish ishlari bo‘yicha rahmatli Abdulg‘affor Bayoniyning fidokorona hamkorligi va Dr. Muhammad Yaqub Vohidiyning yordami bu to‘g‘risida ta‘sirli edi.

Hamkorlik bo‘lmagani uchun gazetani tarqatish va abonentlarga yetkazish og‘irlashgan edi. Idora, Afg‘oniston axborot va madaniyat vazirligidan yuz sonni tekinga tarqatish buyrug‘ini olishga muvaffaq bo‘lgan edi. Hurmatli Muhammad Umar Alim Bayot tarjimon va maslahatchi sifatida gazeta uchun tahsinga sazovor xizmatlar qilgan [Aminiy 2009:3].

Asosan, Afg‘onistonda o‘zbekcha gazeta chiqarish sovet, ayniqsa Tojikistonlik maslahatchilarga yoqmasdi. Shuning uchun hokim partiyaning markaziy qo‘mitasi qaroriga ko‘ra 1984-yil «Kurash» Shibirg‘onga va «Yulduz» Mazori Sharifga surgun qilindi.

Albatta «Yulduz»ni zamonaviy (linu tip) tizimdan chiqarib, qo‘rg‘oshin harflari qoloq sistemiga o‘tkazish qattiq bir zarba edi. Bu sistemada kalimalar qo‘rg‘oshindan yasalgan ayri-ayri harflar bilan bitta-bitta terilib jumlar bog‘lanadi va shu uslubda terilgan sahifa mashinaga berilib bosimdan chiqariladi. Ko‘pincha harflar o‘chgan va satrlar aniq bo‘lib chiqmaydi.

Shundoq sharoitda «Yulduz»ning mas‘ul menejerligi vazifasi 1984-yili iste‘dodli yozuvchi va muxbir Abdulloh Ruinga yuklatildi.

Abdulloh Ruin, sun‘iy ravishda yuzaga keltirilgan cheklanishlarga e‘tibor bermasdan, o‘zbek ziyolilari va yozuvchilari bilan birlashib va ularning yordami bilan to‘siqlarni oradan ko‘tarib, bosmaxona kamchiliklariga qaramasdan izchil mehnat bilan, gazetani yurgizishga va tirajini ko‘paytirib, o‘quvchilarga yetkazish masalasini hal qildi. Uning tashabbusi bilan Alisher Navoiyning bir qator asarlari jumladan «Majolis un-nafois», «Lison ut-tayr», «Nazm uj-javohir», «Mashrab» devoni «Yulduz» gazetasida chop etildi. U, Alisher Navoiy asarlaridan 16 tasini bir jurnalda nashr qilishini amalga oshirgan. Undan keyin «Yulduz» gazetasining mas‘uliyati ustoz Nurulloh Oltoy zimmasiga qo‘yildi.

Ustoz Nurulloh Oltoy nihoyat og‘ir sharoitda milliy matbuotimiz osmonida birinchi bo‘lib porlagan va necha yil davomida o‘z nurini sochib turgan «Yulduz» gazetasini chiqarib, uning hayotini saqlab qolishini o‘z zimmasiga oldi. Negaki, ijtimoiy va siyosiy sharoit o‘zgarib, ilm va madaniyatga qiziqish ruhiyati pasaymoqda edi. Jihodiy kuchlar to‘qnashuvi natijasida bosmaxonalar kuyib kul bo‘lib, ularning ishchilari har tomonga sargardon bo‘ldi.

Ustozga oliy himmat va kuchli irodani qo‘ldan bermasligi uchun, xalq va vatanni sevh hamda millati oldida mas‘uliyatini sezish ruhiyati, turki bo‘lard. U gazetani qo‘l bilan ishlatiladigan «Gastadnar» mashinasi orqali nashr etishda davom etadi. Gazeta 30-36 sahifalik kitobcha shaklida nashrdan chiqq boshladi va ustoz Nurulloh Oltoyning og‘ir mehnati bilan «Yulduz» yana 5 yilgacha nur sochib turdi. Aytish mumkinki, «Yulduz» nashriyoti og‘ir sharoit natijasida o‘zining kutilgan shakl va mazmuniga ega bo‘lolmagan bo‘lsa ham, mazmun yuzasidan Afg‘oniston o‘zbek matbuotida kelajak avlodlari uchun o‘rnak bo‘ladigan bir davrning boshlanishi bo‘ldi va barcha ziyolilarni yoshlardan olib qarilarigacha she‘r hamda maqola yozishga tashviq qildi va xalqimiz uchun bir ilm va adabiyot maktabiga aylandi [Toshqin 2013:1].

«Yulduz» gazetasining nashr etilishi janubiy Turkistonda o‘zbek tilini adabiy til darajasiga ko‘tarish, bu tilga nisbatan ishlatiladigan «mahalliy» va «morasmiy» kabi soxta niqoblarni olib tashlash yo‘lida qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi.

«Yulduz» gazetasini yangi zinaga ko‘tarish kerak. Ushbu gazeta butun o‘zbek xalqining quvonchlarini, tili va dardi bo‘lishini nazarda tutar ekanmiz, eng avval o‘zbek xalqining moddiy va ma‘naviy yordami, o‘zbek ziyolilarining samimiy hamkorliklari, fikriy mahsuloti va ijodi mana shunday niyatlarga asos bo‘ladi degan umiddamiz [Aminiy 2005:2].

Xulosa va takliflar. 18-asrning ikkinchi yarmidan 20-asrning ikkinchi yarmigacha Afg‘onistonda o‘zbek tili, adabiyoti va madaniyati turli bosim, cheklash va assimilyatsiya siyosatlariga duchor bo‘ldi. Mintaqa o‘zbeklari bu siyosiy amaliyotlarga qo‘llaridan kelganicha qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsalar ham, o‘zlarining madaniy va sivilizatsiyaviy asarlarini, ularni yetkazishda qo‘llagan til va adabiyotlarini saqlab qolishda katta qiyinchiliklarga duch keldilar. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab individual va ijtimoiy kurash va sa‘y-harakatlar o‘z samarasini bera boshladi. Ularning birlashib qudratga aylangani, ularning rasman mavjud bo‘lishlariga, borligini rasman ro‘yxatga olishlariga yo‘l ochdi. «Yulduz» gazetasini Afg‘oniston o‘zbek tili va adabiyoti rivojlanishi uchun qaytadan nashrga chiqishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Aybak ko‘zguasi haftaligi, 2015, 5-son, 4-bet.
2. Aybak ko‘zguasi haftaligi, 2014, 7-son.
3. Aminiy M. K. 2005 «Afg‘oniston Turkiy matbuotining qisqacha tarixi»(www.bayanifoundation.com).
4. Aminiy M. K. 2009. «Turkiy tillarning nasharot tarixchasi» www.bayanifoundation.com
5. Toshqin, A. 2013 «Yulduz jaridasining tarixchasi» www.bayanifoundation.com.

6. Oltoy, N. 1994 “*Bu millatning egasi bormi?*” (www.bayanifoundation.com).
7. Oq yo‘l gohnomasi, 2009, 1-yil, 1-son, 2016, 4-son.